

ZAMONAVIY RANGTASVIR VA U TASVIRIY SAN'ATINING
BADIY JARAYONLARIDAN BIRI SIFATIDA

Meliqo‘ziyeva Sarvinoz Odiljon qizi

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
Rangtasvir (dastgohli) ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy rangtasvir va u tasviriy san’atining badiiy jarayonlaridan biri sifatidagi ahamiyati haqida ochib berishga harakat qildindi. O‘zbekistonda ijod qilayotgan rassomlar ijodi va ularning uslublari o‘rganib chiqilgan. Mazkur mavzuni to‘liq yoritishga qaratilgan bu maqola tasviriy san’at ixlosmandlari o‘rganishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar haqida yoritilgan, shuningdek, amaliy ishslashga o‘rgatish usullari kabi masalalarga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: San’at, zamonaviy rangtasvir, badiiy jarayon.

**СОВРЕМЕННАЯ ЖИВОПИСЬ И ОНА КАК ОДИН ИЗ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ
ДОКУМЕНТОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА**

АННОТАЦИЯ

В этой статье была сделана попытка раскрыть современную живопись и ее значение как одного из художественных процессов изобразительного искусства. Были изучены творчество художников, работающих в Узбекистане, и их стили. Эта статья, призванная полностью осветить эту тему, посвящена информации, которую могут изучить любители изобразительного искусства, а также таким вопросам, как методы обучения практической работе.

Ключевые слова: Искусство, современная живопись, художественный процесс.

**MODERN PAINTING AND IT AS ONE OF THE ARTISTIC
DOCUMENTS OF FINE ART**

ABSTRACT

In this article, you tried to reveal the importance of modern painting and its visual art as one of the artistic processes. The works and styles of artists working in Uzbekistan have been studied. Aimed at fully covering this topic, it covers information that lovers of fine arts can learn, and also focuses on issues such as methods of teaching practical work.

Key words: Art, modern painting, artistic process.

San’at shunday kuchki, har qanday qalbni o’ziga rom etib go’zallik, nafislik tomon yetaklaydi. Gohida shunday san’at asarlari yaratiladiki, asrlar davomida uning qarshisida o’zimiz hayratda qolamiz. Bunday go’zal asarlarni yaratguncha ijodkorni katta mehnati, sabr-toqati, qalb go’zalligi, mehr va ko’z nurlari singib, keyin insonlar qalbini zabt etish uchun shoshilganga o’xshaydi. Bunday san’at insonni o’ziga asrlar davomida chorlaydi. San’atning barcha jabhalari taraqqiy etib, takomillashib boruvchi murakkab jarayon

bo'lib, u o'ta ziyraklik va bilimdonlik bilan munosabatda bo'lismeni taqozo etadi. Turli tarixiy davrlarning ma'naviy va moddiy meroslari – dunyo madaniyatining yorqin sahifalaridan biriga aylanib, ilm-fan, me'morchilik, tasviriy va amaliy san'ati o'zi bilan dunyo miqyosidagi ajoyib favqulodda holatini namoyon etdiki, bu o'z navbatida xalqimiz san'atini O'zbekiston san'ati deb shuhurat qozonishi beziz emasligining shubhasiz dalilidir. Bu boradagi tub o'zgarishlar ayniqsa tasviriy va amaliy san'atda yaqqol ko'zga ko'rindi. Tasviriy san'atning birgina rangtasvir yo'nalishi olib qaraydigan bo'lsak, u yillar davomida shakllanib rivojlanib yanada zamonaviy turli yo'nalishlari va oqimlari yuzaga kel boshladi. Ularning orasida eng ko'zga ko'ringanlariga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

Impressionizm: ushbu uslub hozirgi taassurotni yetkazish uchun yorug'lik va rangdan foydalanish bilan tavsiflanadi. Asosiy e'tibor atrofimizdagi dunyoning o'tkinchi hissiyotlarini suratga olishga qaratilgan.

Ekspressionizm: ekspressionizm rassomning hissiy va psixologik holatiga qaratilgan badiiy harakat hisoblanadi. Yaratilgan san'at asari ko'pincha shiddatli, qo'pol va ifodali bo'lib, maqsad rassomning eng chuqur his-tuyg'ularini yetkazishga qaratiladi.

Fovizm: fovizm qisqa muddatli harakat bo'lib, yorqin, jasur va g'ayritabiyy ranglardan foydalanish bilan ajralib turadi. Maqsad dunyoning energiyasi va hayotiyligini yetkazish hisoblanadi.

Kubizm: kubizm-bu mavzuni asosiy shakllariga ajratib, keyin uni yangi mavhum kompozitsiyaga qayta tiklaydigan rangtasvir uslubidir. Maqsad mavzuni bir vaqtning o'zida bir nechta nuqtai nazardan ko'rsatish va asosiy e'tibor shakl va geometriyaga qaratiladi.

Futurizm: futurizm texnologiyaning kelajagi va salohiyatiga qaratilgan badiiy harakatdir. Yaratilgan san'at asari ko'pincha futuristik va mavhum bo'lib, maqsad zamonaviy dunyoning tezligi va energiyasini yetkazish hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda zamonaviy rangtasvirning eng muhim yutuqlariga erishib kelmoqda deb aytolamiz bular:

Abstrakt ekspressionizmi rassomlarning harakati bo'lib, ular uchun ularning ishining asosi ekspressivlikdir. Ularning texnikasi tez sur'atda, katta cho'tkalar va kata o'lchamdagи matolarda rasm chizish yoki shunchaki matoga bo'yoq tomizish bilan tasvirlangan. Ularning fikriga ko'ra, faqat shu tarzda his-tuyg'ularning eng katta ifodasiga erishish mumkin deb hisoblangan.

Pop-Art. Harakat 1960-yillarda paydo bo'lgan bo'lib, mavhum san'atga qaramaqarshi holatda ijod qilingan. Bu yo'nalish shunday talqin qilinadiki, bu keng jamoatchilik uchun yaqqol tushunarli bo'lgan asarlardan iborat.

Minimalizm. Minimalizm 1960-yillarda paydo bo'lgan va oddiy geometrik shakllar hamda cheklangan ranglar palitrasidan foydalanish bilan tavsiflangan. Maqsad eng zarur narsalarga qisqartirilgan va chalg'itadigan narsalardan xoli bo'lgan san'atni yaratish bo'lgan.

Fotorealizm. Ushbu yo'nalish ikkita san'at ya'ni rangtasvir va fotografiya birlashganda paydo bo'ldi. Fotosurat tasvirlarni maksimal darajada realizm bilan saqlaydi. Ushbu yo'nalishni yaratuvchilar odatda fotosuratlarni suratga olishdi va keyin ularni matoga ko'chirishdi.

Ma'lumki, zamonaviy rangtasvir an'anaviy rangtasvirdan farq qiladi, chunki u

san'at va haqiqat o'rtasidagi chegaralarni buzishga intiladi. Bu ko'pincha yangi materiallar, texnikalar va g'oyalalar bilan tajriba o'tkazishni o'z ichiga oladi va maqsad o'tmish konvensiyalariga qarshi chiqishdir.

Yangi rangtasvirdagi falsafiy-ijodiy munosabatda didaktik ohanglar istisno qilinmaydi, ammo, ular an'anaviy pand-nasihatdan ko'ra ko'proq faol mushohada qilishni yodga soladi. O'zbekiston rassomlari tomonidan ham ko'p marotaba zamonaviy rangtasvirga murojaat etib kelingan. Negaki rassomlar yillar davomida ijod qilishidagi qo'yilgan chegaralardan chiqish yo'llini topishgan edi go'yo.

Bu rassomlarni qutidan tashqarida o'ylashga va yangi g'oyalardan foydalanishga majbur qildi, bu esa o'z navbatida rassomlarni ilhomlantirdi. Rassomlar o'zlarining izlanishlarini tasvirlardan ekspressivlikka yo'naltiradilar. Yangi texnikalar va katta texnik imkoniyatlar paydo bo'lmoqda edi. Rangtasvir asosan ikki yo'nalishda rivojlanadi. Bir tomonidan, bu kontseptual san'at va minimalizm bo'lib, tafsilotlarning kamligi va hissiyotning yetishmasligi bilan tavsiflanadi. Boshqa tomondan, bu impressionizm, romantizm va klassik elementlarga qaytishdir.

XX asrning ikkinchi yarmida rasmning ko'plab tasniflari paydo bo'ldi. Ijtimoiy va etnik guruhlarning paydo bo'lishi, yangi texnika va texnik imkoniyatlarning paydo bo'lishi, muayyan uslublarning tor doirasi turli xil texnika va yo'nalishlarning paydo bo'lishi uchun asos yaratadi.

1990-yillar rangtasvirchilari badiiy yo'nalishda to'ntarish yasaydigan harakatlarga kirishmadilar, ularning kiritgan yangiliklari «sokin inqilob» tusini kasb etdi. O'zbekistonda 1990-yillarda uslubiy jihatdan o'ziga xos rassomlar guruhi shakllandi, ularning ijodiga qiziqish ham susaygani yo'q. Rassomlar ijodida yevrilishlar sodir bo'lmoqda. Yangi plastik yo'nalishlarda jo qilgan hayoliy ertagu-dostonlar, xalq og'zaki ijodi va matallardagi timsollar, syujetlar, turli xil rasm-rusm va marosimlar bilan bog'liq belgilar hamda ramzlar ular rangtasvirininng yangi bosqichini belgiladi.

XI asrning global va hududiy miqyosdagi yangicha dunyoqarashlarning paydo bo'lishi sabablari juda murakkab, chalkash va ziddiyatlar bo'lib, ular ko'p jixatdan davr kayfiyatiga bog'liq. Tasviriy san'atda bunday holat yuzaga kelishi mafkuraviy omillar bilan bir qatorda, ijod qilish imkoniyati paydi bo'lgach, rassomlarda o'z asarlari marketingi bilan shug'ullanish imkoniyati ham yuzaga keldi. Bu davrda milliy romantik ruxdagagi etnografik rangtasvir asarlariga e'tibor kuchaygani rassomlarning bu yo'nalishda ijodiy izlanishlar qilish va o'z uslubini topish uchun intilishga kuchli turtki berdi.

Bugungi kunda, O'zbekiston tasviriy san'atida har bir musavvirning o'z ijodiy tafakkurini nomoyon etishga intilishi sezilmoxda. Chunki har bir ijodkor o'z atrofida sodir bo'layotgan voqelikka o'ziga xos munosabatda bo'ladi. Yangi paydo bo'layotgan tasviriy yo'nalishlardan biri syujetlarni aniq tasvirlashdan chekinishi bilan aniq ajralib turadi. Bu yo'nalish hayotni qanday bo'lsa shunday tasvirlash yo'lidan bormaydi. Shu sabab, san'atda, unung janrlarida, portretda istiora, badiiy metafora, ramzlar mubolag'asi ka'bilarining o'rni kuchayib bormoqda. Hayot haqidagi tasavvurlar ijodiy tafakkur bilan qorishib, badiiy obrazga aylanmoqda.

Yuqoridaqilardan xulosa qilishimiz mumkinki, bugungi yillarga kelib, ko'pgina rassomlarning dunyoqarashlari o'zgardi, rangtasvirda yangi badiiy shakl va g'oyalalar paydo bo'ldi.

Mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng shaxsiy uslubning, boshqacha plastik ifoda tili, alohida tashbehli usullar va timsollar doirasida izlanishlar dunyoga keldi. Buning ustiga avvalgi san'at falsafasidan farqli o'laroq, turli yoshdagi rassomlar ijodida bir-biriga o'xshamagan uslublar yaratishga intilish ishtiyoqi sezildi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy rangtasvir murakkab va xilma - xil yo'nalishlardan iborat bo'lib, u an'anaviy me'yorlardan voz kechishni belgilab berdi va ijodiy ifodaning yangi shakllariga yo'l ochdi. Ushbu harakatning bir qismi sifatida paydo bo'lgan uslublar va harakatlar bugungi kunda rassomlarni ilhomlantirishda va ularga qarshi chiqishda davom etmoqda. Zamonaviy rangtasvir san'at olamiga va san'at qanday bo'lishi mumkinligi haqidagi tushunchamizga chuqur ta'sir ko'rsatganini inkor etib bo'lmaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. N.Oydinov. Tasviriy san'at tarixi.T.: „Ijod” 2007.28 b.
3. Abdullaev N.U. «San'at tarixi» .Toshkent, O'qituvchi, 1986 y. (5-19).
4. Zigonshina T. “O'zbekistonda san'at va madaniyat” G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot – Т.: 1978. S – 160 s.
5. Андреева Е. Ю. Постмодернизм: Искусство второй половины XX — начала XXI века. СПб.: Азбука-классика, 2007. — 488 с
6. Штейн С. Ю. Онтология «современного искусства» // Артикульт. 2017. 27(3). С. 55-72.